

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PAREMIOLOGIK BIRLIKLARDA ERKAK OBRAZINING NAMOYON BO'LISHI

Samadova Marjona Sherali qizi

O'zDJTU, Ingliz filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Narmurodova Gulnoza Ilhomovna

O'zDJTU, Umumiy tilshunoslik kafedrasida dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi paremiologik birliklar (maqollar, matallar, xalq hikmatlari) da erkak obrazining ifodalanishi, unga xos sifatlar, ijtimoiy rollar va gender stereotiplari tahlil qilinadi. Ikkala tilning paremiyalarida erkakning qaysi xususiyatlar bilan tasvirlanishi, ular qanday madaniy qadriyatlarga asoslanishi va farqlanish nuqtalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: paremiologiya, erkak obrazi, o'zbek maqollari, ingliz maqollari, gender stereotiplari, qiyosiy tahlil, xalq og'zaki ijodi, mentalitet.

Kirish: Paremiologiya (yunoncha: paroima-hikmatli so'z, zarbulmasal) - 1) ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremalarni o'rganadigan fan sohasi; 2) muayyan tilda mavjud bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar – paremalar tizimi.

Maqollar, matallar, va hikmatlarda jamiyatning erkak va ayolga bo'lgan munosabati, gender rollari, ijtimoiy ideallar o'z aksini topadi. Ingliz va o'zbek tillari paremiyalarini o'rganish orqali erkakka xos fazilatlar, stereotiplar va milliy mentalitetdagi farqlarni ko'rish mumkin.

O'zbek maqollarida erkak ko'proq idealizatsiya qilingan obrazga ega bo'lib, u kuchli, jasur, halol, oilaning bosh tayanchi, mas'uliyatli shaxs sifatida namoyon bo'ladi. „Yigitga mardlik yarashar“, „Yigitning botirini maydonda sina“, „Yigit so'zi bitta“, „Yigitga yig'i yarashmas“ kabi maqollar erkakdan kuch, jasorat, so'zida turish, halollik, mardlikni kutadi. Bu paremiologik birliklar o'zbek xalqining qadimda Patriarxat davri deb nomlanuvchi tuzilmasi bilan bog'liq bo'lib, unda erkak – oilaning boshlig'i, uy ta'minotchisi va himoyachisi hisoblangan.

Erkakning mehnatsevarligi ham o'zbek paremiyalarida alohida e'tiborga olinadi. „Bir yigitga qirq hunar oz“, „Hunarli yigit – mevali daraxt“, „Yigitning baxtini mehnat ochar“ kabi maqollar esa yigit kishining jismoniy mehnatga aloqadorligi, oilasi uchun moddiy ta'minot yaratishi lozimligini anglatadi. Tanganing ikkinchi tomoni ham bo'lganidek, o'zbek maqollarida erkaklarning kamchiliklariga ham ishora qilinadi. „O'ttizida bola-ellikda ham bola“, „Erkak bo'lsa ham erka“ kabi birliklar

erkakning ba'zan o'z bo'ynidagi mas'uliyatdan qochishi yoki o'ziga ortiqcha erkinlik berishi haqida tanqidiy mazmunga ega. Bugungi zamonaviy qarashlarga ko'ra, bunday maqollar ijtimoiy-ma'naviy jihatdan eskirgan bo'lsada, ular xalq og'zaki ijodining tarixiy bosqichlari sifatida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek maqollarida erkak obrazi turli qirralarda, o'ziga xos badiiy timsollar orqali tasvirlangan. Erkak-kuch va matonat timsoli sifatida gavlalanadi. Bu obrazlar orqali xalq oila mustahkamligi, mehnatsevarlik, sadoqat kabi qadriyatlarni asrlar davomida avlodlarga yetkazib kelgan. Bu kabi maqollar nafaqat tarixiy qarashlarni aks ettiradi, balki hozirgi yosh avlodlar uchun ham tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib qolaveradi.

Ingliz tilidagi maqollarga nazar tashlaydigan bo'lsak, asosan, ingliz jamiyatida qadimdan shakllangan individualizm, mustaqillikka urg'u, shaxsiy javobgarlik va aql bilan ish tutish kabi tamoyillar maqollarda ham o'z aksini topgan. „A man's word is his bond“ („Erkakning so'zi uning kafolatidir“), „A man is known by the company he keeps“ („Erkakning kimligini uning atrofi ko'rsatadi“) kabi maqollar erkakni birinchi navbatda axloqiy fazilatlar orqali baholaydi. Bu maqollarda erkakning kuchi emas, balki uning fe'l-atvori, qaror qabul qilishdagi barqarorligi va insoniy sifatlari muhim hisoblanadi.

Ingliz xalqi o'z maqollarida erkakning oiladagi rolini ham o'ziga xos tarzda yoritib beradi. „A father is a banker provided by nature“ kabi maqollarda ota oilaning asosiy ta'minotchisi sifatida ko'rsatilgan. Ammo ingliz jamiyatidagi gender tengligi va rollarning nisbatan moslashuvchanligi tufayli erkakning oila hayotidagi vazifalariga o'zbek maqollariga qaraganda kamroq qat'iy talablarga urg'u beriladi.

Ingliz maqollarida ko'proq realistik va hazilomuz ohang mavjud bo'ladi. „A man without a woman is like a ship without a sail“ („Ayolsiz erkak yelkanisiz kemaga o'xshaydi“) kabi birliklar erkakning mukammal emasligi, uning ham o'z ehtiyojlari va kamchiliklari borligini ko'rsatadi. Bu maqollar erkakni nafaqat ideal qahramon, balki oddiy inson sifatida ham tasvirlaydi.

Ingliz va o'zbek paremiologiyasining eng muhim farqi – mentalitetda. O'zbek paremiyalarida patriarxal qarashlar kuchli bo'lganligi uchun erkak kuchli, qat'iy, oila uchun mas'ul shaxs sifatida qaraladi. Ingliz tilidagi paremiyalarda esa erkakning aqliy qobiliyati, mustaqilligi va xulq-atvori asosiy mezon sifatida aks etadi. O'zbek paremiyalarida jismoniy kuch ko'roq bo'lsa, inglizlarda axloqiy fazilat birinchi o'ringa qo'yiladi.

Ammo o'xshash taraflarini ham unutmasligimiz kerak. Ikkala tilda ham erkakning so'zida turishi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, o'ziga xos donoligi qadrlanadi. „Er yigit so'zining usti bo'ladi“ va „A man's word is his bond“ mazmun jihatidan juda yaqin. Bu umumiylik erkak obrazining ko'plab madaniyatlarda universal sifatlardan bog'lanishining isbotidir.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillaridagi paremiologik birliklar erkak obrazini ikkala xalqning qadriyati, an'analari asosida shakllantiradi. Har ikkisi o'z madaniyatiga xos gender tasavvurlarini chuqur aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madvaliyev A. Til va xalq donoligi. - Toshkent: Fan, 2003. Rasulova D. Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik tahlili.
2. "O'zbek xalq maqollari, 2005, Sharq" kitob.
3. Oxford Dictionary of Proverbs. Oxford University Press, 2015.

